

TIBBIY TA'LIM XIZMATLARI SIFATINI YAXSHILASH .

Ikramova Sokina Bonu Ravshanzoda

Angren Universiteti Umumdavolash ishi kafedrasi o`qituvchisi

Suyarova Shahroza Abdumalikovna

Angren Aby Ali ibn Sino

nomidagi jamoat salomatligi texnikumi yetakchi o'qituvchi

Ergasheva Muazzam Abdumalik qizi

Angren Aby Ali ibn Sino

nomidagi jamoat salomatligi texnikumi maxsus fan o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada oliy ta'lismiz tizim xizmatlari bozorini rivojlantirishning marketingni o'rni, oliy ta'lismiz raqobatbardoshligini oshirishda ta'lismiz xizmatlari marketingining asosiy vazifalarini belgilash va ularni strategik yo'llari bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta'lismiz muassasalari faoliyatida ta'lismiz xizmatlarini o'ziga xos jihatlarini aniqlash va ushbu yo'nalishga oid izlanishlar, ilmiy ishlar muhokama qilingan. So'ngi yillarda oliy ta'lismiz tizimini har tomonlama sifatli va qulaylashtirish maqsadida yangi tizimlarni tashkil etish ko'rib chiqiladi. Jahon reytingidan yuqori joylarni egallagan nufuzli ta'lismiz muassasalarini strategiyasidan andoza olib qo'llanilsa ijobiy natijalarga erishish mumkin.

KALIT SO'ZLAR: Strategiya, marketing, oliy ta'lismiz, raqobatchilik, ta'lismiz sifati, jahon standarti, boshqarish, ta'lismiz tizimi.

ANNOTATION

This scientific article describes the role of marketing in the development of the market of services of the higher education system, the main tasks of the marketing of educational services in increasing the competitiveness of higher education and their strategic ways. Also, research and scientific works related to the identification of the specific aspects of educational services in the activities of higher educational institutions and related to this area were discussed. In recent years, in order to improve the quality and convenience of the higher education system in every way, the issue of establishing new systems has been considered. Positive results can be

achieved if the strategy of prestigious educational institutions that occupy high places in the world ranking is used as an example.

KEYWORDS. Strategy, marketing, higher education, competition, quality of education, world standard, management, education system.

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье описывается роль маркетинга в развитии рынка услуг системы высшего образования, основные задачи маркетинга образовательных услуг в повышении конкурентоспособности высшего образования и их стратегические пути. Также были обсуждены научно-исследовательские и научные работы, связанные с выявлением особенностей образовательных услуг в деятельности высших учебных заведений и относящиеся к данной сфере. В последние годы в целях всемерного повышения качества и удобства системы высшего образования рассматривается вопрос создания новых систем. Положительных результатов можно достичь, если использовать в качестве примера стратегию престижных учебных заведений, занимающих высокие места в мировом рейтинге.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Стратегия, маркетинг, высшее образование, конкуренция, качество образования, мировой стандарт, менеджмент, система образования.

Oliy ta'limda "sifat" tushunchasi aniq ma'noga ega emas. Chunki ta'lim qandaydir aniq ashyo-buyum yoki sanoat mahsuloti singari moddiy obyekt bo'lmasdan, balki murakkab xususiyatlarga ega bo'lgan hodisadir. Shu boisdan ham "sifat" tushunchasi borasida xilma-xil va ba'zan o'zaro zidiyatli bo'lgan juda ko'plab ta'riflarni uchratish mumkin. Shunga qaramasdan, oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan har qanday faoliyat muqarrar tarzda "sifat"ga murojaat qilish zaruratiga duch keladi. Chunki sifat xususiyatlarning integral va yaxlit tizimi bo'lib, uning mazmun-mohiyatini aniqlashtirmasdan turib ta'limni takomillashtirishga bo'lgan har qanday urinish o'z mohiyatini yo'qotadi, tom ma'noda absurdlikka aylanadi. Shu boisdan ham oliy ta'limni rivojlantirish haqida gap ketganda "sifat" fundamental ahamiyat kasb etadi. Bu esa oliy ta'limda sifat konsepsiyasining jiddiy ilmiy-nazariy muhokamasini taqozo etadi. Ta'lim sifatiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, unga nisbatan keltirilgan yuzlab ta'riflar mayjud. Biz ulardan

faqat ayrimlariga e'tibor qaratamiz. Ba'zi olimlar ta'lim sifatini ta'lim jarayoni va natijalarining umumiy xususiyati deb hisoblaydi. Bu ikki komponentning birligi orqali ifodalanishi mumkin: jarayon va natija. Boshqa bir ta'rifga ko'ra, ta'lim sifatini shaxsning shakllangan bilim darajasi, malakalari va ijtimoiy ahamiyatga ega sifatlari tashkil qiladi. Ta'lim sifati tushunchasini iqtisodiy, ma'muriy, ijtimoiy, tashkiliy, texnik-texnologik, psixologik, huquqiy, ekologik, shaxsiy, tizimli va boshqa pozitsiyalardan ko'rib chiqadigan ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Oliy ta'lim tizimida o'z yo'nalishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti.

Rivojlangan mamlakatlar orasida Yevropa Ittifoqida davlat va nodavlat ta'lim muassasalaridagi ta'lim sifatini baholash yaxshi yo'lga qo'yilganini ko'rish mumkin. Jumladan, ittifoq kesimida ta'lim sifatini kafolatlash hamda universitetlarni akkreditatsiyadan o'tkazish mezonlari ishlab chiqilgan bo'lib, a'zo davlatlarning ushbu mezonlarga amal qilishi bir nechta xalqaro oliy ta'lim sifatini kafolatlash tashkilotlari tomonidan tekshirib boriladi. Bunda sifat talablariga rioya qilmaydigan oliy ta'lim muassasalarining mahalliy ta'lim sifatini baholovchi tashkilotlar tomonidan chuqur tekshiruvlar olib bormasdan akkreditatsiya qilinishining oldini olish va Yevropa Ittifoqi hududida sifatli oliy ta'lim mezonlarini muvaffaqiyatli yo'lga qo'yish maqsad qilingan. Bular orasida Oliy ta'limda ta'lim sifatini kafolatlash Yevropa hamjamiyati (The European Association for Quality Assurance in Higher Education) 2005 yili Bolonya jarayonida ta'sis etilgan bo'lib, Yevropa Ittifoqidagi akkreditatsiya va oliy ta'lim sifatini kafolatlash tashkilotlarini tamsil qiladi. Mazkur tashkilot boshqa xalqaro oliy ta'lim sifatini kafolatlashga doir vazifalarni bajaruvchi tashkilotlar, jumladan, Yevropa universitetlari hamjamiyati (European University Association), Yevropa talabalar hamjamiyati (European Students' Union), Yevropa oliy ta'lim institutlari hamjamiyati (European Association of Institutions in Higher Education) bilan hamkorlikda Yevropadagi oliy ta'lim sifatini kafolatlash tashkilotlari ro'yxatini shakllantirilgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki tibbiy ta'lim sifatini yaxshilashni bosqichma-bosqich olib boorish hamda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan andoza olgan holda ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Kredit modul tizimiga o'ta boshlash bunga misol bo'la oladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent, "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 25 yanvar. Manba: www.press-servise.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli Qarori. – Toshkent, 2017 yil 21 aprel. Manba: <http://press-servis.uz>.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining "OTMlarida marketing xizmati faoliyatini takomillashtirish, bitiruvchilarni ishga taqsimlash jarayoni nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 48-sonli buyrug'i
4. Nodavlat oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini baholash: xorijiy va milliy tajriba. Toshkent-2024yil.

